

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Buxoro davlat universiteti

rektor

O.X.Xamidov

2022 yil

30 avgust

ANATOMIYA

ISHCHI O'QUV REJA

Bilim sohalari: 200000 - Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lim sohalari: 210000 - Sotsiologiya va psixologiya
Ta'lim yo'nalishlari: 60310900 – Psixologiya (sport)
61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)
(2022-2023 yil, 1-kurs, 1- semestr)
Akademik daraja: **BAKALAVR**

O'qish muddati: 4 yil

Ta'lim shakli: kunduzgi

Buxoro 2022

Fan/modul kodi ANT1104	O'quv yili 2022-2023	Semestr I	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus	Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Anatomiya	30+30	60	120

2	<p align="center">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsadi inson tanasining faqat biologik qonuniyatlarinigina o'rganish bilan cheklanmaydi, balki jismoniy faoliyatni inson tanasining makro - mikrostrukturasi ta'siri tekshiriladi uning filogenetik va ontogenetik rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi.</p> <p>Fanning vazifalari-talabalarga organizm tuzilishini turli struktura darajalari yuzasidan chuqur bilim berish. Talabalarning umumbiologik va nazariy tayyorgarligini oshirish, hamda fiziologiya, psixologiya, bioximiya, sport tibbiyoti, davolovchi jismoniy tarbiya nazariyasi kabi fanlarni o'rganish uchun zamin yaratish va bu fanlarni asos yaratuvchi bilimlarini berish. Yoshga bog'liq holda konstitusional va sport morfologiyasi asoslarini o'rgatish, suyaklar, bo'g'imlar, mushaklar, ichki a'zolar proeksiyalarini aniqlay bilish bilan birga amaliyotda qo'llanadigan antropometriya, somatometriya, somatoskopiya usullarini o'rgatishdan iborat.</p> <p align="center">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlar)</p> <p align="center">2.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-Mavzu: Kirish. Anatomiya fani vazifasi va rivojlanish tarixi. Hujayra haqida ta'limot. To'qimalar.</p> <p>Anatomiya fan sifatida va uni o'qitish. Anatomicaning mazmuni va vazifalari, uning tibbiy - biologik hamda sport-pedagogik sikli fanlari bilan bog'liqligi. Anatomicaning uslubiy asoslari.</p> <p>Anatomicaning tekshirish usullari. Anatomicani o'rganish prinsiplari. Organizm va uni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlari. A'zo - tizimning tarkibiy qismi. A'zolar (tizimlari) idorasini bajarish va harakatlarni ta'minlash.</p> <p>Organizm - yaxlit tizim, uni tashkil etuvchi qismlar. Hujayra - yaxlit organizmni struktur va funksional birligidir. Hujayra nazaryasining asosiy holatlari. Hujayralarning tuzilishi va kimyoviy tarkibi. Umumiy va maxsus</p>		
---	--	--	--

<p>ahamiyatga ega bo'lgan organoidlar. To'qimalar: muskul to'qimasi, nerv, epiteliy to'qimasi va biriktiruvchi to'qimasi.</p> <p>2-Mavzu: Suyak tizimining umumiy anatomiyasi. Suyaklarning birikishi.</p> <p>Suyak - skeletni tashkil qiluvchi tarkibiy qism sifatida. Suyak to'qimasi, uning turlari va tuzilishi. Dag'al tolali va plastinkasimon suyak to'qimalari.</p> <p>Suyak ustki pardasi. Uzun (naysimon), yassi, kalta, aralash suyaklar va havo saqlovchi suyaklar. Suyaklarning shakllari va ularning bajaradigan funksiyasi bilan bog'liqligi. Suyaklarning birlashishi haqidagi ma'lumot. Suyaklarning birlashish klassifikatsiyasi: sindesmozlar - suyak oraliq to'siqlari. boylamlar, choklar, tog'ayli birikishlar - sinxodrozlar va simfizlar. suyakli birikish turi - sinostozlar. Bo'g'imlarning asosiy qismlari: bo'g'im yuzalari. bo'g'im tog'ayi, bo'g'im kapsulasi, bo'g'im bo'shlig'i, bo'g'im suyuqligi. Bo'g'imlarning qo'shimcha xususiyatlari. Bo'g'imlarni mustahkamlovchi omillar. Bo'g'imlarning klassifikatsiyasi. Oddiy, murakkab, ikki kamerali va hamkorlashgan bo'g'imlar. Bo'g'im yuzalarining shakli. o'qi atrofidagi aylanishi va harakati. Suyaklar birlashishidagi harakatchanlikka ta'sir etuvchi omillar. Bo'g'imlar harakatidagi tormozlanish va harakatlarning cheklanishi.</p> <p>3-Mavzu: Gavda skeleti. Bosh skeleti.</p> <p>Ko'krak qafasi skeleti. Gavda skeleti: umurtqa pog'anasi skeleti. Umurtqa pog'anasi suyaklarning tuzilishi va birikishi. Umurtqa pog'onaning bo'limlari. Bo'yin, ko'krak, bel, dumg'aza va dum umurtqalarining ta'rifi. Bolalar umurtqa pog'onasining tuzilishi xususiyatlari. Umurtqa pog'onasining bir butunligi. Qovurg'alar va to'shning tuzilishi.</p> <p>Bosh skeletining umumiy xarakteristikasi. Bosh skeletining miya va yuz qismlari. Boshning miya qismidagi toq va juft suyaklar. Boshning yuz qismidagi suyaklar. Bosh va yuz suyaklarining birikish xususiyatlari.</p> <p>4-Mavzu: Qo'l skeleti. Oyoq skeleti.</p> <p>Yelka kamari va erkin qo'l suyaklari. Kurak va o'mrov suyagi. Yelka, tirsak va bilak suyaklari, kaft usti, kaft va barmoq suyaklari, ularning joylashishi va tuzilishi. Qo'l suyaklarining birikishi. To'sh - o'mrov va akromial-o'mrov bo'g'imlari. Bo'g'im yuzalarining shakllari.</p> <p>Oyoq kamari va erkin suyaklari - oyoqlarni tashkil qiluvchi suyaklar. Chanoq suyagi: yonbosh, qo'yimich va qov suyaklari. Son suyagi, tizza qopqog'i, katta boldir suyaklari, oyoq panjasi suyaklari, ularning joylashishi va tuzilishi. Oyoq suyaklarining birikishi.</p>
--

5-Mavzu: Muskul tizimining umumiy anatomiyasi. Gavda muskullari, tanani harakatga keltiruvchi muskullar.

Muskullarning tuzilishi va funksiyasi. Muskullarning morfoloqik va funksional ta'rifi: muskul holati, muskul tonusi. Muskul kuchi va uni belgilovchi omillar. Bir, ikki va ko'p bo'g'imli muskullar. Muskullar ishining ta'rifi. Richaglar va muskullar ishining qonunlari.

Gavda muskullarining tuzilishi va funksiyasi. Umurtqa pog'onasini harakatga keltiruvchi muskullar. Umurtqa pog'onasini yozishda qatnashuvchi muskullar, ularning joylashishi, boshlanish va birikish joylari, odam tana sathiga nisbatan proeksionalari. Tananing turli tayanch holatlarida orqa muskullarning funksionalari.

Nafas olish muskullari: ko'krak nafas olishda ta'sir ko'rsatuvchi muskullar, asosiy, yordamchilari va qisman yordamchilari. Diafragma, uning joylashishi, tuzilishi va funksiyasi. Qovurg'alar muskullari (tashqi va ichki). Nafas chiqarish muskullari: qorin muskullari, qovurg'alararo muskullar. Nafas olishning turlari.

6-Mavzu: Qo'l muskullari. Oyoqning muskullari.

Qo'lning yelka kamar shasi harakatlarida qatnashuvchi muskullar:

Yelka va yelka bo'g'imining harakatlarida qatnashuvchi muskullarning funksional guruhlar. Tirsak bo'g'imi va bilak - tirsak (proksimal va distal) bo'g'imlari harakatlarida qatnashuvchi muskullarning funksional guruhlar. Qo'l panjasi harakatlarida qatnashuvchi muskullarning funksional guruhlar. Jismoniy madaniyat va sport mashqlari bilan shug'ullanganda qo'llarning bajaradigan asosiy harakatlari. Qo'l muskullarining rivojlanishi va takomil etishning spetsifik xususiyatlari. Odamning paydo bo'lishi (shakllanish) jarayonida qo'llar - mehnat a'zo sifatida.

Tos-son, tizza oshiq-boldir bo'g'imlari harakatlarida qatnashuvchi muskullarning funksional guruhlar. Boldir va tizza bo'g'imi harakatlarida qatnashuvchi muskullar. Oyoq panjasi harakatlarida qatnashuvchi muskullarning funksional guruhlar. Oyoq panja barmoqlari harakatlarida qatnashuvchi muskullar. Oyoq panja muskullarining boshlanish va birikish joylari. Oyoqning biriktiruvchi to'qimali tuzilmalari: fassiyalari, muskullararo to'ssiqlar.

7-Mavzu: Ovqat hazm qilish tizimining umumiy anatomiyasi.

4

Ichki a'zolarning klassifikatsiyasi. Ichki a'zolarning, naysimon va bo'shliq a'zolar devorining tuzilishidagi umumiylik. Qorin pardasining seroz qavatlar. Ichki a'zolarning rivojlanishi. Ovqat hazm qilish a'zolari tizimining umumiy ta'rifi, funksiyasi va ahamiyati. Ovqat hazm qilish kanali (naysimon a'zolar) va ovqat hazm qilish bezlari (parenximatoz a'zolari). Og'iz bo'shlig'i.

8-Mavzu: Nafas olish a'zolari.

Nafas olish a'zolarning umumiy ta'rifi. Nafas yo'llari va o'pkalar. Burun bo'shlig'i. Burun yo'llari, ularning tuzilishi, funksiyasi va ahamiyati. Halqum - havoni o'tkazuvchi yo'l sifatida. Hiqildoq, kekirdak. O'pkalar. O'pkaning morfoloqik va funksional birligi. Qon bilan havo orasidagi gaz almashinuv mexanizmi. Plevra. Ko'krak oralig'i, uni oldingi va orqa qismi.

9-Mavzu: Siydik a'zolar tizimi. Endokrin bezlari.

Siydik ayirish a'zolari. Siydik ayirish a'zolarning umumiy ta'rifi. Buyraklar va ularning joylashishi, shakli va tashqi tuzilishi, funksional ahamiyati. Buyrakning ichki tuzilishi. Nefronning tuzilishi. Siydik yo'li va Siydik pufagi joylashishi, devorining tuzilishi va funksiyasi.

Erkaklar jinsiy a'zolari. Erkaklar jinsiy a'zolarning umumiy ta'rifi. Urug'don (moyaklar), ularning tashqi va ichki tuzilishi. Moyak ortig'i, urug chiqarish yo'li, urug' pufakchasi, ularning joylashishi va tuzilishi. Urug' ayirish yo'li, prostata bezi, urug' o'tuvchi yo'l.

Ayollar jinsiy a'zolari. Ayollar jinsiy a'zolarning umumiy ta'rifi. Tuxumdonlar, joylashishi, tuzilishi va funksiyasi. Bachadon naychalari, ularning joylashishi, devorining tuzilishi va funksional ahamiyati. Bachadon bo'shlig'i.

Ichki sekretsiya a'zolarning umumiy ta'rifi va xususiyatlari. Epifiz, gipofiz bezi, qalqonsimon bez, qalqonsimon oldi bezlari, me'da osti bezining ichki sekretsiya qismi, buyrak osti bezlari, ularning joylashishi, tuzilishi va funksiyasi. Jinsiy bezlarning ichki sekretsiya qismlari.

10-Mavzu: Qon - tomirlar tizimining umumiy anatomiyasi. Yurak va ichki qon aylanish doiralari.

Qon tomirlari tizimining umumiy ta'rifi. Qon tomirlar tizimining funksiyasi. Qon tomirlari klassifikatsiyasi. Qon tomirlari devorining tuzilishi. Yurak. Yurakning joylashishi. Yurak devorining tuzilishi. Yurak bo'lmalari - bo'lmachalar va qorinchalar, ularning tuzilishi va funksiyasi. Yurakni klapanli (qopqog'li) apparatlari, ularning joylashishi, tuzilishi va funksiyasi.

5

So'rg'ichsimon muskullar va nay iplari.

Yurakdan qonni olib chiqaruvchi qon tomirlar (aorta va o'pka stvoli). Yurakka qonni olib keluvchi qon tomirlar (yuqori va pastki kovak venalar), Yurakning qon bilan ta'minlanishi va inversiyasi. Yurakning o'tkazuvchi tizimi.

11-Mavzu: Qon aylanish doiralari va tomirlari. Limfa tizimining anatomiyasi.

Aortaning qismlari va ularning joylashishi. Aorta ravog'ining shoxlari. Tashqi va ichki uyqu arteriyasi. O'mrov osti arteriyasi. Bosh miya asosidagi arteriya. Qo'l arteriyalari. Ko'krak va qorin aortasi. Chanuq arteriyalari. Oyoq arteriyalari. Oyoq panja arteriyasi. Odam tana sathiga nisbatan bosh, bo'yin, gavda va qo'l arteriyalarining proektsiyalari. Yirik arteriyalarni qon tomirlarining pulsasiya bo'lish joylarini aniqlash.

Kichik qon aylanish doirasi: O'pka stvoli, o'pka arteriyalari, o'pka kapillyar tomirlari va o'pka venalari. Yuqori kovak vena: joylashishi, venalar va ularni hosil qiluvchi manbalari. Bosh va bo'yin venalari. Ichki bo'yin turug' venasi. Kalla ichidagi venalari. O'mrov osti venasi. Qo'lning venalari. Qorin devoir venalari. Oyoqning chuqur va yuzaki venalari.

Limfa tizimining tarkibi. Limfaning tarkibi. Limfa kapillyarlari va ularning qon kapillyarlardan farqli belgilari. Limfa tugunlari, Limfa bezlarining tuzilishi. Limfa suyuqligining tarkibi.

Immunogenez a'zolari. Immun tizimining markaziy va periferik a'zolari. Ayrisimon bezlar: joylashishi, tuzilishi va funksiyasi. Qizil suyak ko'migi. Taluq, joylashuvi, tuzilishi, qon bilan ta'minlanishi va funksiyasi. Limfoid - bodomsimon bezlar, T - limfositlar va V - limfositlarning kelib chiqishi.

12-Mavzu: Markaziy nerv tizimining umumiy anatomiyasi. Orqamiya.

Nerv tizimining umumiy ta'rif. Nerv tizimining organizm faoliyatidagi ahamiyati. Refleks yoyining tuzilishi. Nerv tizimining klassifikatsiyasi. Markaziy, periferik, somatik va vegetativ avtonom nerv tizimlari. Nerv tizimining rivojlanishi.

Orqamiyaning joylashishi va tuzilishi. Orqamiyaning ildizlar, tugunlari, nervlari. Orqamiya nervlarining shoxlari. Orqamiyaning kulrang moddasi, uning yadrolari, joylashgan yerlari, funksional ahamiyati. Markaziy kanal. Orqamiyaning o'rovchi pardalari. Pardalar oralig'idagi bo'shliqlar va ularning ta'rif.

13-Mavzu: Bosh miya va uning bo'limlari.

Bosh miya. Bosh miyaning umumiy ta'rif. Bosh miyaning qismlari, miya sopi.

Uzunchoq miya, uning joylashishi, tuzilishi, uning oq va kulrang moddalari. Rombsimon chuqurlik.

Uzunchoq, keyingi miya, ko'priklari, miyacha, asosiy yadrolari, ularning joylashgan yerlari va funksiyalari.

14-Mavzu: Periferik nerv tizimi. Bosh va orqamiya nervlari.

Bosh miya nervlari. Bosh miya nervlarining umumiy ta'rif. O'rta miya oraliq miya, miya ko'prigi, uzunchoq miya va miyachaning joylashishi, tuzilishi. Bosh miya katta sharlari. Yarim sharlarning tashqi tuzilishi, yuzalari, egatlari. Yarim sharlarning kulrang va oq moddasi. Bosh miya pardalari. Markaziy - nerv tizimidagi. Assosiativ, komissural va proeksion yo'llar.

Orqamiya nervlari. Ularning hosil bo'lishi, joylashishi, asosiy shoxlari va a'zolari innervasiya qilishi.

15-Mavzu: Sezgi a'zolari.

Sezgi a'zolari. Ko'z olmasi va uning pardalari. Ko'zning nur singdiruvchi apparati. Tiniq suyuqlik, ko'z gavhari, shishasimon tana. Ko'zning yordamchi apparatlari.

Eshitish - muvozanat a'zosi. Tashqi quloq, quloq supراسi, tashqi eshitish yo'li, nog'ora parada. O'rta quloq, nog'ora bo'shlig'i, eshitish suyakchalari, eshitish (Evtaxiy) nayi, so'rg'ichsimon o'siq katakchalari. Ichki quloq. Muvozanat saqlash apparati. Muvozanat apparatlarining sportchilar uchun amaliy ahamiyati. Tovush o'tkazuvchi va qabul qiluvchi apparatlar. Chig'anoq (kortiy) a'zosi.

Hid bilish a'zosi. Burun bo'shlig'ining nafas olish va hid bilish qismlari. Ta'm bilish a'zosi. Ta'm bilish reseptorlari va ta'm bilish analizatori.

Teri - tanani qoplovchi to'qima. Teri, uning tuzilishi va funksiyasi. Epidermis - uski va xususiy teri - derma qavatlari.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

3.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun tavsiya etilayotgan mavzular to'yxani.

1-Amaliy mashg'ulot: Suyaklarning shakllarini o'rganish.

2-Amaliy mashg'ulot: Suyakning kimyoviy tarkibini o'rganish.

3-Amaliy mashg'ulot: Umurtqa pag'onasidagi suyaklarning tuzilishini va

<p>ularning uzaro birlashtirilishi o'rganish.</p> <p>4-Amaliy mashg'ulot: Qovurg'alar, to'sh suyaklari va ularning tana bo'limlariga o'zaro birlashtirilishi o'rganish.</p> <p>5-Amaliy mashg'ulot: Qo'l-yoqning kamari va erkin suyaklarining tuzilishi</p> <p>6-Amaliy mashg'ulot: Bosh skelet suyaklarining tuzilishi va birlashtirilishi qonuniyatlarini o'rganish.</p> <p>7-Amaliy mashg'ulot: Qo'l-yoqning erkin muskullarini tuzilishi, birlashtirilishi va funksiyasi.</p> <p>8-Amaliy mashg'ulot: Ikki, uch va ko'p'o'qli bo'g'imlarning tuzilish qonuniyatlarini.</p> <p>9-Amaliy mashg'ulot: Ovqat hazm qilish organlarini anatomik tuzilishi.</p> <p>10-Amaliy mashg'ulot: Nafas olish va chiqarish organlarining tuzilishi va funksiyasi.</p> <p>11-Amaliy mashg'ulot: Buyrakning tuzilishini o'rganish.</p> <p>12-Amaliy mashg'ulot: Yurak tuzilishi bilan tanishtirish.</p> <p>13-Amaliy mashg'ulot: Nerv hujayrasi va nerv tolalarining tuzilishi</p> <p>14-Amaliy mashg'ulot: Orqa miyaning tuzilishi va uni o'rab turgan pardalar.</p> <p>15-Amaliy mashg'ulot: Ko'z soqqasining tuzilishi.</p> <p style="text-align: center;">IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.</p> <p>4.1. Mustaqil ishlar uchun tavsiya etilayotgan mavzular ro'yxati:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Anatomiya faning rivojlanish tarixi. 2. Anatomiyani o'rganish usullari. Tana o'qi va sathlari. 3. Ontogenez. Embrional taraqqiyotning xususiyatlari. 4. Postnatal ontogenezning asosiy davrlari. 5. Embrional rivojlanish. 6. Hujayralarning bo'linish turlari. Mitoz. Meyoz. Amitoz. 7. Suyak to'qimasi. Suyaklanish turlari. 8. Muskullarni bajaradigan ish turlari. Muskullarni ish quvvatini oshirishda ritchaglarni ahamiyati. 9. Organizmda uchraydigan bir va ikki yelkali ritchaglar va ularni ta'riflang. 10. Ichki a'zolar haqida tushuncha. 11. Bezlar tuzilishi va rivojlanishi. 12. Qon-tomirlarining tuzilishi. Tomirlarning sinflanishi. 13. Yurakning o'tkazuvchi yo'llari. Yurak innervatsiyasi. 14. Immunitizimning markaziy va periferik a'zolari. 15. Markaziy nerv tizimining o'tkazuvchi yo'llari. 16. Assosiativ, komissural va proeksion o'tkazuvchi yo'llar. 17. Bosh miya kata yarim sharlar tuzilishi.

<ol style="list-style-type: none"> 18. Bosh miya va orqa miyani o'rab turuvchi pardalar. 19. Sensor tizim haqida tushuncha. Analizatorning tuzilishi. 20. Yurug'lik o'tkazuvchi yo'llari. 21. Teri tuzilishi va ahamiyati. 22. Odam evolyusiyasi, dastlabki odamlar. 23. Suyaklarning birlashtirilishi xillari. 24. Bo'g'im yuzalarning xillari va bo'g'im turlari. 25. Talqning tuzilishi va joylashuvi. 26. Bosh miya nervlari va ularning nomlari. 27. Orqa miya nervlari va ularning chiqallari. 28. Splanxnologiya asoslari. 29. Erkaklar tanosil a'zolari tuzilishi. 30. Ayollar tanosil a'zolari. <p style="text-align: center;">V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar).</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>"Anatomiya" fanni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasini "Umumiy anatomiya" va "Xususiy anatomiya" qismlariga ajratish mumkin. O'quv dasturining "Umumiy anatomiya" qismida "Osteosindemologiya", "Mifologiya" va "Dinamik anatomiya" bo'limlardan tashkil topgan.</p> <p>- tabiat evolyusiyasi to'g'risida inson organizmining bir butunligimorto-funksional xususiyatlar haqida tashvurgaga ega bo'lishi;</p> <p>Xususiy anatomiya ham 3 bo'limdan iborat bo'lib, unda "Ichki a'zolar haqida talimot", "Qon-tomirlar tizimi" va "Nerv tizimi va sezgi" bo'limlaridan iborat. Anatomiyaning ikkala qismida nazariy bilimlar bayon etilgan. Tavsiya etiladigan namunaviy dasturda aloxida ajratilgan boblarda odam organizmi individual taraqqiyotning davrlariga ko'ra o'sish va rivojlanish xususiyatlari, yoshga qarab o'zgarishi va jinsga xos bo'lgan xususiyatlarini taraqqiyoti haqida bilimlar kiritilgan.</p> <p>Modda almashinuvida ishtirok etuvchi tizimlar chuqur o'rganiladi. Bularga "Hazm tizimi", "Nafas tizimi", Siydik ayirish tizimi va endokrin tizimlariga oid a'zolarning joylashuvi, tuzilishi va funksiyalari tahlil qilinadi. "Qon aylanish tizimining" tarafdin tashqari qon tomirlarining klassifikatsiyasi, gemodinamika prinsiplari, topografiyasi, shoxlanishi, qonni yig'ish yoki qon bilan ta'minlash soxalari bo'yicha ma'lumotlar maxsus jadvallarda berilgan. Xar bir tizimga xos a'zolari kelib chiqishi, joylashuvi, makroanatomik tuzilishi bilan bir qatorda, a'zolari funksiyalarini bajarish xususiyatlarini talabalar <i>bilishi kerak</i>:</p> <p>- Anatomiya fani jarayonida talaba ma'lum ko'nikmalarga ega bo'ladi.</p>	<p>3</p>
--	----------

	<p>odam tanasining proeksiyasida asosiy suyakli tuzilmalar - aniqlovchi nuqtalar asosida a'zolari, muskullarni joylashuvini, bo'g'imlarni harakatlarini, tomirlar va nervlar proeksiyasini, antropometrik ulchovlarini to'g'ri o'tkazishini ta'minlaydi. Jismoniy tarbiya institutlarining talabalari uchun ayniqsa kerak bo'lgan sportga tanlashda morfofunksional kursatkichlarning roli, anatomo-antropologik belgilar va irsiyat bilan muhitning sportchilar konstitusiyasining shakllanishi mahoratining o'sishiga ta'siri, dinamik anatomiya bo'limida sport amaliyotida eng ko'p qo'llanilayotgan xolatlarda va harakatlarni bajarishda tayanch-harakat apparatini morfo-kineziologik taxilini qilishga doir <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>;</p> <p>- talaba fundamental anatomiyadan olingan dalillar asosida trenirovka jarayonini to'g'ri tashkil etish malakasiga ega bo'lish. - Sport amaliyotida antropometrik ko'rsatkichlar asosida esa tashxisiy sport tanlovini samarali o'tkaza olish.</p> <p>- Turli holat va harakatlarning anatomik taxlili asosida talaba o'z maxoratini oshirish. Sportchi o'z mutaxassisligidan texnika samarasini oshirish va takomillashtirish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.</p>
4	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruxlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; <p>jamoaga bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</p>
5	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirishi lozim.</p>
6	<p>VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbalari</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Safarova D.D. Odam anatomiyasi (I jild), Darslik. T.: " O'zDJTSU nashriyot matbaa": 2018 y. - 315 b. 2. Safarova D.D. Odam anatomiyasi (II jild), Darslik. T.: "O'zDJTSU nashriyot matbaa": 2018 y. - 302 b. 3. Safarova D.D. Anatomiya fanidan praktikum Toshkent, 2010 - 160 b.

	<ol style="list-style-type: none"> 4. Safarova D.D. Sport morfologiyasi Darslik.T., Ijod-Print - MChJ, 2015 y -200 b. 5. Axmedov N.K. Atlas. Odam anatomiyasi (I jild). T.: "Ozbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti, 2018 y. - 263 bet. 6. Axmedov N.K. Atlas. Odam anatomiyasi (II jild). T.: "Ozbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti, 2018 y. - 255 bet. 7. Иваницкий М.Ф. Анатомия человека, М. «ЧЕЛОВЕК», 2011, 622 с. <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11 2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017y., 6-son,70-modda. 3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. "O'zbekiston", 2017. 4. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi-T.:O'zbekiston, 2014.-46 b. 5. Xudoyberdiev R.E., Axmedov N.K., Zohidov X.Z. va boshq. Odam anatomiyasi. T. "Ibn Sino" 1993y. - 739 b. 6. Safarova D.D. Anatomiya fanidan praktikum Toshkent, 1993 - 252 b. 7. Никитюк Б.А., Чтесов В.П. - Морфология человека М., "МГУ", 1990 г. -343 с. 8. Липченко В., Самусов Р. Атлас по анатомии человека М., "Медицина", 1983. 9. Мартирисов Э.Г. Методы исследований в спортивной морфологии М., "ФисС", 1983. 10. Сапин М.Р. Анатомия человека. М., "Медицина", 1985, 544 с. <p>Chet el adabiyotlari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Сонин Н.И., Сапин М.Р. Биология человека изд. "Дрофа" М. 2000. 2. Жемс Бивен. Иллюстрированное руководство по анатомии и физиологии Словакия. Изд. Внешсигма 1998.
--	--

<p>3. Габриелян Э.С., Акопов С.Э “Клетки крови и кровообращения” Эреван: 1992.</p> <p>4. Москалев Ю.И. “Минеральный обмен” М.:1991.</p> <p>5. Уест Дж. “Физиология дыхания” М.:1992</p> <p>6. Билли Г.Л. Атлас анатомии человека. 3 т. Ростов на/Д, 2014</p> <p>7. Билич Г.Л., Зигалова Е.Ю. Анатомия человека Москва: Издательство «Э», 2016</p> <p>8. Adolf Faller., Michael Schuenke-The Human Body - “An Introduction to Structure and Function” Thieme Stuttgart New York http:// www.bestmedbook.com/2004</p> <p>Internet saytlari</p> <p>1. http://didaktor.ru/dva-poleznyx-onlajn-resursa-po-anatomii/</p> <p>2. https://science.wikia.org/ru/wiki</p> <p>3.http://www.historymed.ru/encyclopedia/categories/?ELEMENT-ID=11</p> <p>4. https://webfous.ru/obuchenie/virtualnyj-3d-atlas-anatomii-cheloveka.html</p> <p>5. http://ziyonet.uz/ru</p> <p>6. www.biolog.uz</p>	<p>7 Mazkur fan dasturi Buxoro davlat universiteti kengashining 2022 “30 ” avgustdagi “№1” sonli bayonnomasi bilan ma`qullangan.</p>	<p>8 Fan/modul uchun ma`sular: N.A.Shamsiyev - BuxDU, Zoologiya va umumiy biologiya kafedresi katta o`qituvchisi <i>Mel</i></p>	<p>9 Taqrizchilar: Salimova S.F. Zoologiya va umumiy biologiya kafedresi o`qituvchisi, p.f.f.d. (PhD) <i>Salimova</i> Raximov R.R BuxDTI Gistologiya va genetika kafedresi o`qituvchisi, b.f.f.d. (PhD) <i>Raximov</i></p>
---	---	--	---